ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ONOMASTIK KO'LAMDA TEOTOPONIMLAR TADQIQI

Turdiqulov Sherzod Duminovch,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Onomastik ko'lamda toponimlar keng qamrovda o'rganilmoqda. Har birining o'z obyekti va o'rganish metodikasi shakllanib, bir-biri bilan uzviylik va farqlilik omillarini keltirib chiqarmoqda. Ma'lumki, aholi o'rtasidagi avloddan-avlodga o'tib keluvchi diniy va e'tiqodiy qarashlar tegishli tarzda xalq madaniyati, milliy urf-odat va marosimlari, qadriyatlar tizimi va pirovardida, tilida o'z aksini topadi. Mazkur ta'sirlashuv muayyan shakllarda o'z ifodasini topib, tilning nomshunoslik qatlamida bu holat alohida toponimlar misolida yuzaga chiqadi. Binobarin, Surxon vohasida ana shunday teotoponimlar mavjud bo'lib, ularning etimologiyasi, xalq hayotidagi, qadriyatlar ko'lamidagi o'rnini belgilash ilmiy jihatdan nihoyatda ahamiyatli.

Xo'jaipok, So'fi Olloyor ziyoratgohi (Oltinsoy tumani)*, Oqostona Ota, Sulton Saodat, Qirqqiz ziyoratgohi, Fayoztepa ziyoratgohi* (Termiz tumani)*, Qorashiq (Qora oshiq* bo'lsa kerak*), Termiz Ota (Hakim at-Termiziy ziyoratgohi -* Termiz tumani)*, Xo'jamayxona Ota, Xo'ja Qo'chqor Ota, Omonxona Ota, Xo'ja Soutpo'sh Ota, Xo'ja Gulguncha Ota, Toshozar Bobo ziyoratgohi,* (Boysun tumani, Darband qishlog'i), *Termiz Ota (Imom Termiziy ziyoratgohi), Sulaymon Ota ziyoratgohi* (Sherobod tumani) singari joy nomlari o'zining tilshunoslik nuqtayi nazardan ishlanmaganligi, hanuzgacha biror lug'atda o'z izohini topmaganligi bilan tadqiqot manbai bo'la oladi.

O'zbekistonning janubiy hududlaridan biri – Surxondaryo viloyatidagi rang-barang joy nomlari tarkibi hali to'laligicha maxsus o'rganilmagan. Bunday ilmiy ishning boshlanishi va muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi, shubhasiz, tilshunoslik fani uchun, shu bilan birga o'zbek xalqi va O'zbekiston tarixi, etnografiyasi, geografiyasi kabi yondosh fanlar hamda ularning aniq sohalari uchun ham foydali ekanligi ayondir.

O'zbek toponimikasida teotoponimlarga ilmiy obyekt sifatida murojaat qilinmagan. Aniqrog'i, teotoponimlar tushunchasi jahon tilshunosligida ham deyarli o'rganilmagan manba hisoblanadi. Aksar o'rinlarda teotoponimlarni nekronimlar bilan chalkashtirish, teotoponim o'rnida real shaxs nomlari evaziga kelib chiqqan joy nomlarini, shuningdek, etnik va ahamiyatli afsonalar orqali tarkib topgan toponimlarni qabul qilish hollari kuzatiladi. Masalan, *Xorazm* toponimining kelib chiqishi bilan Surxondaryo viloyati Amudaryo sohilida joylashgan *Payg'ambar oroli*ning etimologiyasi o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. Ya'ni har ikki toponimda ham teotoponimlik belgisi mavjud emas. Xususan, tarixchi S.P.Tolstov *Xorazm* etimologiyasini afsonaviy asoslar bilan (*Xor+razm+go'sht+o'tin= daryo bo'yida yashab, baliq ovlovchi va o'tin qidirib keluvchi kishilar yeri*) isbotlashga urinadi[1], shu singari, fanda "*Pasttekislik yer*" (Klippert, Lerx), "Hosildor yer" (Zaxay, Geyger), "*Xor zamin*", "*Yomon yer*" (Yuti, Shpigel), "*Xox + razm* – urushga moyil, jangovar" (A.Vamberi), "*Hur + aamin*" - hur, *xurshid + oftob* "Oftob yer" (Savelev, Grekov)[2]; "Qurshalgan" (N.Bogolyubov)[3] degan izohlar ham mavjud. Jumladan, S.P. Tolstov: "Mamlakatlarning qadimiy nomlari aksar holda etnik (xalq, qabila) ismlar bilan bog'liq, bu ismlar esa afsonalardan olingan" deb, *Xorazm – Xvarri* + zamin, ya'ni "*Xvarri qabilasining yeri*" degan ma'noda bo'lishi mumkinligini yozadi. Qolaversa, *Xorazm* tarixan zardo'shtiylik dinining vatani sifatida *Xvar* (*quyosh*)+zamin (*yer, zamin*) = *quyosh o'lkasi* tarzida ham talqin qilinadi.

Umumiy holda, o'zbek onomastikasida ilohiy ahamiyatli joy nomlariga murojaatlar ko'plab kuzatiladi. Masalan, H.Hasanov Markaziy Osiyo (xususan, O'zbekiston) geografiyasiga taalluqli ba'zi qaydlarni keltirarkan, mazkur hududda joylashgan qardosh xalqlar uchun umumiy bo'lgan *Tyanshan* so'zining aslida ilohiy etimologiyaga egaligini ta'kidlaydi. Ya'ni uningcha, *Tyanshan* – mahalliy ot bo'lmasdan, kartografik chalkashlik hisoblanadi. Negaki, mahalliy aholi bu tog'ni (tog' tizmasini – T.Sh.) arablarning kelguniga qadar *Tangritog'* deb atagan. Bu borada V.V.Bartoldning: "Bu tog'larni turli xalqlar muqaddas deb bilgan, ularning e'tiqodicha, bu tog'da ilohiy kuchning makoni bo'lgan" degan qarashlar ham muvofiq keladi. Holbuki, toshkentlik tarixchi Muhammad Haydar Mirza (XVI asr)ning mazkur tog'larni Mo'g'uliston tog'lari deb ataganligi haqida xabarlar bor.

[1] Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 88.
[2] Греков Б. // Правда Востока, 1943, 9 май.
[3] Древний мир. – М., 1962. – С. 367-370.

Tangritog‘ning eng baland cho‘qqisi (hozirda Pobeda cho‘qqisi) Xontangri (*Osmon tog‘ining xoni*) deb atalgan. Davr o‘tib, mazkur tog‘ tizmasining bir qismigina *Tangritog‘* sifatida saqlanib qolgan, biroq yuqori cho‘qqi hamon Xontangri deya atalib kelinadi. Shu zaylda qadimiy turkiy nom bo‘lgan *Tangritog‘* xitoylar tomonidan *Tyan’* (*osmon*), *Shan* (*tog‘*) qabilida talaffuz etila boshlaganidan, XIX asrda yashagan A.Gumboldt ushbu nomni keng ilmiy iste’molga kiritib yuborgan.

Shunga qaramay, mavjud murojaatlar o‘zbek teotoponimlarning jiddiy o‘rganilganini, mazkur *teotoponim* terminining obyektlarning amaldagi identifikatsiyasida qo‘llanganini tasdiqlamaydi. Tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy izohlari, sharhlari yetarli (mavjud emasligi) bo‘lmaganidan, tegishli hududga doir teotoponimlarni tekshirish, ularning lingvokulturologik, leksikografik tadqiqini amalga oshirish hamisha ahamiyatli bo‘lib qoladi. Binobarin, Surxon vohasida ana shunday teotoponimlar mavjud bo‘lib, ularning etimologiyasi, xalq hayotidagi, qadriyatlar ko‘lamidagi o‘rnini belgilash ilmiy jihatdan nihoyatda ahamiyatli.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida toponimik nomlarga jamiyatning mafkuraviy hayotida ahamiyatli unsurlar sifatida qaralmoqda, negaki toponimika onomastikaning muhim yo‘nalishlari doirasida munosib tadqiq obyekti sanaladi. Xususan, onomastika quyidagi 6 yo‘nalish:

1) onomastik tadqiqotlarning asosini tashkil etuvchi **tasviriy onomastika**; 2) onomastik tizimlarning vazifaviy xossalari va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi **nazariy onomastika**; 3) **amaliy onomastika** (yuristlar, xaritashunoslar, bibliograflar, biograflar uchun); 4) she’riyatning tarkibiy qismi hisoblangan **badiiy asarlar onomastikasi**; 5) **tarixiy onomastika**; 6) etnoslar va ularga doir etik birliklar (toponimlar, antroponimlar, zoonimlar va tillar nomlari – lingvonimlarning kelib chiqishi)ni o‘rganuvchi **etnik onomastika** ga ajratilsa, so‘zsizki, bu yo‘nalishlarning har birida toponimik obyektlarga murojaatlar mavjuddir.

Shuningdek, V.N.Toporov til xususiyatiga ko‘ra onomastikani adabiy onomastika (adabiy til materiallari misolida); dialektal onomastika; real va poetik onomastika; zamonaviy va tarixiy onomastika; nazariy va amaliy onomastika turlariga bo‘ladi[1].

Toponimik obyektlarning tasnifi dastlab ularning: 1) tabiiy geografik obyektlar, 2) hududiy va hududiy-ma’muriy birliklar nomi, 3) aholi yashash hududlarining nomlari, 4) ko‘cha-yo‘l tarmog‘i elementlari va transport infrastrukturasi nomlari, 5) muqaddaslashtirilgan joy nomlariga bo‘linishidan kelib chiqadi[2].

Muqaddaslashtirilgan joy nomlari:

a) *nekrotoponim* – maqbara va qabristonlar nomi;

b) *teotoponim* – ziyoratgoh, muqaddaslashtirilgan joy nomlari;

c) *ekklezionim* – diniy marosim va urf-odatlarni o‘tkazish joyining nomi.

Bundan tashqari, toponimlar:

1) makrotoponimlar – aholi yashamaydigan joy nomlari;

2) mikrotoponimlar – aholi yashamaydigan kichik hududli joy nomlariga ajratiladi.

Tadqiqotimiz doirasida ***teotoponim*** va ***ekklezionim*** terminlariga **oydinlik kiritish zaruratiga duch keldik. Negaki bu masala dissertatsiyamizga taalluqli asosiy prinsipial jihatlardan biridir va mazkur terminlar talqiniga eng to‘g‘ri munosabatni onomastikaning maxsus sohasi doirasida tekshirishni nihoyatda muhim deb hisobladik.**

Ekklezionim nima? Fanda **ekklezionimika** sohasi mavjud bo‘lib, N.V.Podolskaya ekklezionimni (yun. ekklezio - “*yig‘ilish uchun joy”* va onoma - “*nom”* ma’nosida) turli e’tiqodlar doirasida tegishli odat va marosimlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan joy nomi sifatida izohlaydi va uning tarkibiga cherkov, monastir, masjidni kiritadi[3] (o‘zga tadqiqotlarda yana masjid, daraxt, buloq, muqaddaslashtirilgan toshlar, mehrob kabilar ham mansub qilingan). Shuningdek, olima ekklezionimlarni urbanonimlarning bir qismi sifatida ham tushunadi Bizningcha, ekklezionim o‘rnida cherkov va monastirlar qatorida masjidlarni tushunish mutlaqo noto‘g‘ri. Buni asoslash uchun 2 sababni keltiramiz:

Xristian cherkov va monastirlari tarkibida bo‘lgan chasovnya – mehrobsiz kichik ibodatxonalar aynan diniy marosimlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan inshoot sanalsa, masjidlarda unday qurilmalar mavjud bo‘lmaydi. Holbuki, masjidlarning to‘rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo‘ladi. Ayrim yirik masjidlar mehrobining o‘ng tomonida va’zxonlik uchun mo‘ljallangan minbar, ba’zilarida esa Qur’on o‘qiladigan maxsus joylar ham bo‘ladi. Ba’zi masjidlar huzurida maktablar ham bo‘lib, ularda o‘g‘il bolalarga Qur’on o‘qish o‘rgatiladi. Masjidlarda juma va hayit namozi kunlari imom-xatiblar xutba o‘qib, turli diniy masalalar bo‘yicha va’zxonlik qiladi.

[1] Топоров В. Н. Из области теоретической топономастики / В. Н. Топоров. – М.: Наука, 1962. – С. 3-12.

[2] Арутюнова Е.В., Бешенкова Е.В., Иванова О.Е. Лингвистические основы современного написания топонимов (к теории орфографического правила) // Известия Российской академии наук. Серия литературы и языка. 2021. Т. 80. № 1. – С. 21-23.


[3] Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – 194 с.

1. Masjidda barcha ibodatlar jamoaviy amalga oshiriladi, demakki, yakka holda ibodatlarni bajarish va ularga individual-aqidaviy tus berish, aqidaviy marosim yoxud kult bilan bog‘liq odatlarga intilish Islom dinida qoralanadi. Tabiiyki, masjidlarda bunday aqidalarga ergashmaslik targ‘ib qilinadi. Aniqlanadiki, masjidlarni ekklezionimlar tarkibiga kiritish diniy-e’tiqodiy va ilmiy jihatdan noto‘g‘ridir.

Mazkur qarashlarni tahlil qilarkanmiz, bizga ma’lum tadqiqotlarda ekklezionim o‘rnida faqat pravoslav cherkovi mafkurasiga xizmat qiluvchi hamda ma’lum diniy-e’tiqodiy marosimlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan inshoot va bino nomlarining tushunilishi aniqlandi. Vaholanki, O‘zbekiston toponimikasi miqyosida fikr yuritilganda, diniy-e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liq joy nomlari alohida olingan binolar yoki qurilmalar misolida emas, balki *tepa, soy, dara, tosh, tog‘, bobo, momo, ostona, ota* va hokazo indikatorli mikrotoponimlar shaklida ham mavjud bo‘lishi kuzatildi. Qolaversa, *teotoponim* termini nafaqat diniy marosim o‘tkazish, balki xalq diniy-e’tiqodiy yoxud aqidaviy qarashini namoyon etuvchi joy nomini ham anglatadi. Demak, tadqiqotimiz uchun diniy va e’tiqodiy marosimlarni o‘tkazish yoxud umuman, aholining e’tiqodiy va aqidaviy qarashlari bilan bog‘liq joy nomlarini yagona *teotoponim* termini bilan atashni ma’qul ko‘rdik. Zotan, ekklezionim, teotoponimlar borasidagi fikrlarning ayrimlarigina bizga ma’qul bo‘lib, ulardan kelib chiqqan holda diniy va e’tiqodiy marosimlarni o‘tkazish yoxud umuman, aholining e’tiqodiy va aqidaviy qarashlari bilan bog‘liq joy nomlarini quyidagicha tasnifladik.

1. Diniy-e’tiqodiy marosimlarni o‘tkazish joyi:
1) ekklezionimlar;
2) teotoponimlar;
3) agiotoponimlar;
4) nekrotoponimlar (shartli) (1-rasm)[1].

1-rasm. **Muqaddas joy nomlarining onomastik tizimi**



Mazkur tasnif doirasidagi onomastik unsurlar zaruriy hollarda teotoponimik vazifada kelishini e’tirof etishimiz mumkin. Bu albatta toponimlar tadqiqida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Rezyume. Onomastikada toponimlar tadqiqi masalasiga bag‘ishlangan ushbu maqolada asosan teotoponimlar va ularning mazmuniy ko‘lami, ma’noviy darajasi, diniy-e’tiqodiy va aqidaviy qarashlarga ega bo‘lishi masalasi hamda alohida guruhlarda tasniflanishi yoritilgan.

Resume. This article, devoted to the study of toponyms in onomastics, mainly discusses theotoponyms and their content scope, spiritual level, religious-faith and doctrinal views, and their classification into separate groups.

Резюме. В данной статье, посвященной изучению топонимов в ономастике, в основном рассматриваются теотопонимы, их содержательный объем, духовный уровень, религиозно-конфессиональные и вероучительные взгляды, а также их классификация на отдельные группы.

[1] Turdiqulov Sh.D. Lingvomadaniy kodlarning onomastik birliklarda ifodalanishi. Monografiya. – Moldava: Lambert Academic Publishing, 2023. – 21-22.